


Sharof Rashidov tuman axborot-kutubxona markazi axborot-biliografiya xizmati



**“Unitilmas xotira –millatning ma’naviy
boyligidir” mavzusida bibliografik ko’rsatkich**

Sh. Rashidov-2026



I.Kirish.

Qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosi chuqur o'rganiladi. Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi O'zbekiston aholisiga murojaat bilan chiqdi.

“Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda”, deyiladi murojaatda.

Murojaatda qayd etilishicha, o'tgan davrda ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekistonda 2001 yildan buyon har yili 31 avgust – “Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlab kelinmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning bo'limlari tashkil etildi.

“Ko'p millatli xalqimizning fidoyi farzandlari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan bog'liq haqiqatni to'la yuzaga chiqarish, ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklash, bu boradagi ishlarning ko'lami va samarasini oshirish maqsadida davlatimiz rahbari yana bir xayrli va savobli ishga qo'l urdilar.

Prezidentimizning farmoyishi bilan mustamlakachilik davrida qatag'on qilingan fidoyi kishilar xotirasini abadiylashtirish, ularning hayoti va faoliyatini, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish bo'yicha Respublika ishchi guruhi tuzildi. Farmoyishda Ishchi guruh o'z faoliyatini keng jamoatchilik va mutaxassislar fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda tashkil etishi lozimligi alohida uqtirilgan.

Mana shu mas'uliyatli vazifadan kelib chiqib, aziz yurtdoshlar, sizlarga murojaat qilamiz:

- oilangizda, mahallangizda, qishloq yoxud tumaningizda, shahringizda yashagan, qatag'on qurboni bo'lgan kishilar hayoti va faoliyatiga daxldor hujjatlar, ular bilan bog'liq buyumlar, yaqin kishilaringizdan eshitgan xotiralarigiz bo'lsa,
- fuqarolar urushi, kollektivlashtirish davri, shaxsga sig'inish yillari o'z ona yurtidan quvg'in qilingan, yaqin va uzoq xorijda yashashga mahkum bo'lgan qarindosh-urug'laringiz to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa,
- “o'zbeklar ishi”, “paxta ishi” degan nohaq ayblovlar jarayonida sudlangan, jabr ko'rgan va qurbon bo'lgan yaqinlaringiz haqidagi materiallar bo'lsa, barcha tafsilotlari, hujjat namunalari, ismi sharifi va manzillari aniq va xolis yoritilgan holda maktub va boshqa jo'natmalar shaklida yoxud shaxsiy murojaat yo'li bilan Ishchi guruh, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi idorasi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta'lim muassasalaridagi bo'limlariga yo'llashingizni iltimos qilamiz.

Xalq va Vatan hurriyati, mustaqillik va adolat tantanasi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan har bir vatandoshimizning ismi sharifini tiklash va xotirasini abadiylashtirishday mas'uliyatli va savobli ish barchamizning siyosiy va fuqarolik burchimizdir”, deyilgan murojaatda.

Respublika ishchi guruhining manzili: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 69-uy, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi.

II. QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH

Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi – Toshkentdagi muzey. O'zbekiston Respublikasining noyob obyektlari qatoriga kiritilgan.

Muzey chor va sovet hokimiyati davrida vatan ozodligi yo'lidagi faoliyati hamda xatti-harakati uchun qatag'on etilgan vatandoshlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Muzeyning ilmiy-tematik ekspozitsiyasi 7 bo'limdan iborat. Bular: XIX asrning o'rtalarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va unga qarshi xalq qo'zg'olonlari, Turkiston muxtoriyatining tugatilishi va 20-yillardagi qatag'on, „Quloqlashtirish“ kompaniyasi (30-yillar), 30-yillardagi qatag'on, 40–50-yillardagi qatag'on, 80-yillardagi qatag'on („Paxta ishi“), Mustaqil O'zbekistonda qatag'on qurbonlari xotirasining e'zozlanishi.

Tarixi

Muzey O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi „Qatag'on qurbonlarini xotirlash kunini belgilash to'g'risida“gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Qatag'on qurbonlarini xotirlash kunini belgilash to'g'risida“gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. 2002-yil 8-noyabr „Qatag'on qurbonlari xotirasiga“ muzeyining ahamiyatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 5-maydagi qaroriga muvofiq muzey ekspozitsiyasi yangilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovichning Mirziyoyev 2017-yil 31-avgust kuni Qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni munosabati bilan muzeyga tashrifi chog'ida bildirgan taklif va mulohazalari Vazirlar Mahkamasi qarorining asosini tashkil etadi. „O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyini va oliy ta'lim muassasalari huzurida Qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan viloyat muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida gi farmonni qabul qildi. Mazkur qarorga asosan muzey O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi departamenti tasarrufiga o'tkazildi hamda uning faoliyati kengaytirildi va takomillashtirildi.

Muzey binosi

Muzey XX asrning 20-yillari boshidan 30-yillari oxirigacha qatag'on qilingan odamlarni ommaviy qatl qilingan joyda joylashgan. Dastlab, muzey binosi 400 m² maydonga ega bitta ko'rgazma zali va bir gumbazli bo'lgan. Ko'rgazma 6 ta bo'limdan iborat edi. Hozirgi bino 2 gumbazli bo'lib, 3 ta zaldan iborat. Ko'rgazmaning umumiy maydoni 960 m² ni tashkil qiladi. Ayvon (teras) 640 m² ni, podval 1568 m² ni tashkil etadi. Yangilangan muzey ko'rgazmasi 10 ta bo'limdan iborat.

Muzey tavsifi.

Muzeyning asosiy vazifalariga qatag'onchilik siyosatining paydo bo'lish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish, mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ'ib etish, qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini o'rganish, ilmiy-ijodiy merosini to'plash, nashrga tayyorlash va chop etish, muzey fondlari va ekspozitsiyalarini mamlakatimiz hamda xorijdagi turli hujjatlar va boshqalar ekspонатlar bilan muntazam ravishda boyitib borish kiradi. Muzey „Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg'armasi bilan hamkorlikda „Qishloq fojiasi“ (R. Shamsutdinov), „Abdulla Qodiriy“ (S. Mirvaliyev), „Cho'lpon“ (N. Karimov) tadqiqotlari, Munavvarqori Abdurashidxonov va Botuning „Tanlangan asarlar“ini nashr etgan. Bundan tashqari, O'zbekiston hujjatli va badiiy filmlar kinostudiyasi hamda "O'zbektelefilm" studiyasi bilan hamkorlikda „Barhayot xotira“, „Armonli yillar ko'zgusi“, „Fidoyi olim“, „Mirtemir“ singari hujjatli filmlar yaratgan. Muzey binosi mamlakatimizning noyob me'moriy inshootlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi va g'oyasi asosida loyihalangan va bunyod etilgan (2002-yil, me'mori A. Turdiyev va boshqalar). Bino an'anaviy me'morlik uslubi (ayvon, gumbaz, peshayvon, ravoq va boshqalar)da qurilib, milliy bezaklar bilan ziynatlangan. Muzey binosi murabba tarhli (20x20 m), balandligi 20 m, gumbazli (balandligi 6,2 m, diametri 5,8 m; feruza rang gumbazi „Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuidagi ayvon gumbazi bilan uyg'un), bino atrofi kengligi 4 m bo'lgan ochiq ayvon bilan o'ralgan, undagi 28 ta ustun va to'sinlar hamda 4 tarafdagi kirish zinapoyalari binoga o'ziga xos salobat baxsh etadi. Binoning pastki qismida texnikmuhandislik, ma'muriyat va boshqalar qo'shimcha xonalar joylashgan, ular ko'rgazma zali bilan maxsus yo'lak va zinapoyalar orqali uzviy bog'lanadi. Bino bezagida marmar, haqiq, granit toshlar, rangli koshinlardan foydalanilgan, yog'och o'ymakorligi (A. Abdullayev, S. Rahmatullayev, N. Sohibnazarov va boshqalar), ganchkorlik (M. Murodov va boshqalar), naqqoshlik

(A. Karimov va boshqalar), koshinkorlik (M. Mamajonov, R. Muhammadjonov, M. Shedrin, V. Gan va boshqalar), gumbazning ichki bezagida murakkab iroqi muqarnas mahorat bilan qoʻllangan. Binoni barpo etishda Toshkent shahri meʼmorlik bosh boshqarmasi hamda „Usto“ ijodiy ishlab chiqarish uyushmasi ustalari faol ishtirok etgan.

Ilmiy faoliyati

Muzey tadqiqot instituti hisoblanadi. Muzeining ilmiy xodimlari qatagʻon tarixiga oid arxiv hujjatlari bilan ish olib bormoqda hamda faktlarga asoslangan materiallar toʻplamoqda. Tadqiqot natijalari muntazam ravishda monografiyalar, publitsistik va badiiy nashrlar shaklida chop etiladi.

Shuningdek, muzey xodimlari qatagʻonga uchragan atoqli oʻzbek adib va mutafakkirlarining asarlarini nashrga tayyorlamoqda va aholi oʻrtasida maʼrifiy tadbirlar oʻtkazmoqda.

III. Qatagʻon qurbonlari haqida nimalarni bilasiz?

Sobiq Ittifoqning tarixiy sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud boʻlib, bu mustabid sovet tuzumining qatagʻonlik siyosatidir.

Stalincha totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning haddan ziyod kuchayib borishi davomida nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismati zavol topdi, balki shu bilan birga millionlab yurt fuqarolarining oddiy insoniy qadr-qimmat, or-nomusi toptaldi, tahqirlandi. Gʻaddor tuzum zulmkorlari oʻz gʻayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib, bunda har bir insonning yurish-turishi, kundalik mashgʻuloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha boʻlgan hamma jarayonlarni ham oʻz nazoratiga olishga intilganlar. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jilovlash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yoʻl bilan badkirdor tuzum shaʼniga dogʻ tushirmaslik, uning soxta obroʻ-nufuzini asrash, avaylash edi.

30-yillardagi qatagʻonda oʻzbek xalqining eng isteʼdodli namoyandalari yoʻq qilindi. Ularga turli ayblar qoʻyilib, har xil bahonalar bilan qatl qilindi. Biroq, shoʻro tuzumini maqtab, “xalqlar otasi” ni kuylagan ayrim shoirlarga ham kun berilmadi. Sababi, ularning beqiyos isteʼdod ekanligi, bir kun kelib baribir oʻz xalqiga yon bosishini oldindan payqagan qizil imperiyachilar ularni ham otib tashlagan.

Sovetlar oʻz siyosatidan sal ogʻish, unga zid keluvchi hollarga shafqatsizlik bilan munosabatda boʻlardi. Buning oqibatida kishilar dunyoqarashi, eʼtiqodini oʻz izmiga boʻysundirish, uni kommunistik axloq, ilmiy va ateistik tamoyillar ruhida shakllantirish uchun keskin kurash olib borgan sovet mafkurasining respublika mehnatkashlarining maʼnaviy hayotiga etkazgan zarari behisob boʻldi. Shu yoʻl bilan xalq maʼnaviy-ruhiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qoʻshib kelgan butun boshliq ruhoniylar tabaqasi yoʻq qilindi. Din peshvolari qattiq taʼqibga olindi.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga “xalq dushmani” tamgʻasini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi “xamirdan qil sugʻurganday” gap boʻlgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi koʻp xonadonlarda vaqti-vaqti bilan oʻtkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday

bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilavergan.

XX asrning 30-yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi qahramonlari, mashhur fan arboblari, mohir diplomatlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchilar, kolxozchilar va boshqa kasb egallari edi. Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlarni "Bosmachi" tamg'asi bilan yo'q qilinib tashlandi. So'ng aholini mehnat qilib biror narsa orttirgan o'rta hol qismi bu baloga giriftor etildi.

Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritardi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbari Lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga "ko'z-quloq" bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetda tutmadi. Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda-o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borgan. Ammo Stalinning yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimasa sabab va bahonalar bilan qiynoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi.

Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin ta'qib chiqarilgan "18 lar guruhi", "Inog'omovchilar", "Qosimovchilar" guruhlarini misolida ko'rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona "gunohi" – bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi xolos.

Respublikaning taniqli arboblardan iborat "18 lar guruhi"ga "yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan" degan soxta aybnoma qo'yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu sababli, rasmiy partiya organlari

tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli jazolarga giriftor etildilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu sababli, 1926-1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

“Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa-jami 7 kishi 1929-yilning 2-yarmida “bosmachilik” harakatiga yordam berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti – bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti-vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovetlarning yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxt-u saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati mana shunday fojia bilan tugadi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan “sa'y-harakatlari” natijasida 1937-1938-yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi “Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonkor tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”, “Ingliz josuslik rezidenturasi”, “Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi” kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo'lmaganligini to'la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo'lgan. XX asr

boshidan 40-yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan “jinoiy ish” ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketganligi faktdir.

Faqat 1937-1939- yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong‘u zulmati xalqimiz dilida mangu o‘chmas armon bo‘lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to‘la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro‘shnolik ko‘rish baxtiga musharraf bo‘ldilar.

Stalincha siyosiy qatag‘ondan jamiyatning sog‘lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko‘p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o‘zlari jaholatparast kimsalar bo‘lganligidan, ilm-u ma‘rifat, ziyo ahlini qadrlash, e‘zozlash o‘rniga ularni xo‘rlash, tahqirlash, kerak bo‘lsa, yo‘q qilishni o‘zlariga kasb qilib olgandilar. Masalan, butun hayoti va ijodini millat baxt-saodati, yurt istiqloli uchun bag‘ishlagan Munavvar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig‘vosi va bo‘htonining aybsiz qurboni bo‘ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo‘lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan “Milliy istiqlol” tashkilotining 87 a‘zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari “Xalq dushmani”, “burjua millatchisi” degan ayblar bilan qoralanib, og‘ir jazolarga hukm qilindi.

O‘zbek adabiyotining ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), G‘ozi Yunus kabi ajoyib iste’dodlar quruq bo‘hton-u tuhmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinib, yorqin faoliyati so‘ndirildi.

Masalan, ulardan biri-professor G‘ozi Olim Yunusovni oladigan bo‘lsak, u 50 dan ziyod asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida umumiy tilshunoslik va til bilimiga kirish kabi maxsus kurslardan ma‘ruzalar o‘qirdi. Biroq bunday iste’dodlar qatag‘on jallodlari uchun sariq chaqalik qadr-qimmatga ega bo‘lmagan. Mustabid tuzum farmonbardorlari, ayniqsa, bunda o‘zbek xalqining milliy ongi, tafakkurini yoritish, uning o‘zligini tanitishga fidoyilik qilgan, jadidizm namoyandalarini yo‘q qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ming afsuslar bo‘lsinki, bunga erishdilar ham. O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan 20-yillarda xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo‘lib yetishgan kishilar atayin qatag‘on qurbonlari bo‘ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta’lim olgan bo‘lsalar ularga o‘sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo‘yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo‘lsa, shuning o‘zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qigan bo‘lsalar, ularda shunday kitoblar bo‘lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqitirmagan. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Said Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda

millat faxri bo'lganlar. Ularga ham "xalq dushmani", "chet el josusi" qabilidagi tavqi la'nat tamg'asi bosilib, qatl etildilar.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga "xalq dushmani" tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi "xamirdan qil sug'urganday" gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko'p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilgan.

Shunday qilib, stalincha qatag'on respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadam yo'qotishlar bilan to'lib toshgan davr bo'ldi. U millionlab odamlarning taqdir-qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, xalqimiz bukilmas irodasini, matonatini namoyon etib, yorug', charog'on kunlar kelishiga intilib, kurashib yashadi. U stalincha har qanday shiddatiga dosh berib, o'z asriy qadriyatlarini, udumlari, rasm-rusumlarini saqlab, imon-e'tiqodiga sodiq qoldi va hamisha milliy istiqlol sari dadil harakatlanishda davom etdi.

Qariyb 130 yillik mustamlakachilik yillarida turli sohalarda qilingan juda ham yomon ishlar va hodisalar turli shakllarda yuz bergan. Qatag'onlar, mahv etishlar, otib tashlashlar xalq ruhiyatini sindirdi. Odamlar bu mislsiz qirg'inlar natijasida bir umr tahlika va qo'rquv bilan yashadi. Ana shu hadiksirash millat hayotini zaharladi. Turmush lazzatini, yashash zavqini zaqqumga aylantirdi. Qo'lga kiritilgan mustaqillik ana shunday iztiroblarga, qon yutishlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umidlariga qanot, dardlariga malham bo'ldi.

Butun borlig'idan, ma'naviy bisotidan judo qilingan xalq erkinlik tufayli katta tashnalik bilan o'z tarixini bilishga intilmoqda. Sho'ro hukumati davrida ongli ravishda madaniy boyliklarimiz yo'q qilingan.

Biz, milliy istiqlol davri kishilari jonajon yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurashib, Stalincha qatag'on qurbonlari bo'lgan aziz insonlar xotirasini doimo qalbimizda saqlamog'imiz kerak. Bu har birimiz uchun farz-u qarzdir. Yurtboshimizning 2001-yil 1-maydagi farmoni bilan har yili 3-avgust kunini "Qatag'on qurbonlari" xotirasini nishonlash kuni deb e'lon qilinganligi g'oyatda quvonarlidir. Bu hozirgi avlodning shahid ketganlar xotirasi oldidagi ehtiromining umumxalq e'tirofidir.

Vatanimizning milliy istiqlooli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lda jonini fido etgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyati haqida.

Abdulla Qodiriy

Abdulla Qodiriy (1894-1938) o'zbek adabiyotining muhim namoyandalaridan biri bo'lib, u romanchilik janrining asoschisi hisoblanadi. Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog'bon oilasida tug'ilgan. Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatini 1914-yildan boshlagan. Uning "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga" she'rlari va "Baxtsiz kuyov" kabi mashhur dramalari mavjud. 1917-yilda esa Qodiriy matbuotda faoliyat yuritishni boshlaydi va u yerda 300 dan ortiq maqola yozadi.

Abdurauf Fitrat

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida ziyolilar oilasida tugʻilgan va “Tarbiyai atfol” jamiyatining moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashi bilan 1909–1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan. U yerda oʻz bilimlari bilan professor-oʻqituvchilarni hayratga solgan va shu davrda “Fitrat” (donishmand) taxallusini olgan. Fitrat “Sayha” nomli, “Munozara” va “Sayyohi hindi” kabi asarlarni yozgan. 1917-yildan boshlab, u “Hurriyat” gazetasining bosh muharriri sifatida oʻz faoliyatini olib borgan.

Choʻlpon

Abdulhamid Choʻlpon shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon va tanqidchi sifatida tanilgan. Choʻlponning ijodiy faoliyati 1913-1914-yillarda boshlangan. Choʻlpon ilk bora “Sadoi Turkiston” gazetasida “Turkistonli qardoshlarimizga” sheʼrini chop etgan. Uning dastlabki asarlari “Doʻxtur Muhammadyor” hikoyasi va “Qurboni jaholat” kabi asarlar boʻlib, bu asarlarda Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holati yoritilgan. Choʻlponning sheʼriy asarlari “Oʻzbek yosh shoirlari”, “Uygʻonish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” va “Soz” toʻplamlarida jamlangan.

IV OʻZBEKISTON TUMAN QATAGʻON QURBONLARI

1929 yil kuzidan maʼmuriy buyruqbozlik usuli bilan Qoʻqon xonligini jamoalashtirish (kollektivlashtirish)ga kirishildi. Dehqonlar zoʻrluk bilan kolxozlarga majbur etildi. Qarshilik koʻrsatganlar esa ijtimoiy mavqei va moddiy ahvolidan qatʼi nazar, «quloq» qilindi. «Quloqlar» sifatida roʻyxatga olingan badavlat xoʻjaliklarning mol-mulki toʻliq musodara qilinib, ularning oilalari Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozogʻiston, Uzoq Sharq kabi oʻzga yurtlarga surgun qilingan. Shuningdek, OʻzSSRda «quloqlar» uchun 17 ta maxsus konsentrasion lager va koʻchirib keltirilganlarning majburiy mehnat posyolkalari tashkil etilgan. Sovet hokimiyatiga qarshilik koʻrsatgan «quloqlar» esa qamoqqa olingan va otib tashlangan ⁵⁰

1937-39 yillarda toʻqib chiqarilgan soxta ayblovlar boʻyicha Oʻzbekistonda 41 mingdan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37 mingdan ortigʻi jazolandi, 6920 kishi otib oʻldirishga hukm qilindi. Faqat davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 kishi otib tashlangan edi. Bu maʼlumotlar respublika miqyosida qizil terror qanchalik keng miqyosda shafqatsiz ravishda amalga oshirilganligining yaqqol isboti hisoblanadi.⁵¹

Xullas, Oktyabr toʻntarilishi oqibatida mustamlakachi sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqimiz boshiga son-sanoqsiz qirgʻinlar, daxshatli va alamli kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli rejimni oʻlkamiz xalqi qabul qilmadi. Istiqlol uchun, erk va milliy ozodlik uchun oʻn olti yil mobaynida qurolli kurash olib bordilar. Bu kurash davomida, ayrim xorijdagi muarrixlar xisobicha 1 million 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va 1 million 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, Uzoq Shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Oʻrolga, Qozogʻistonga, Uzoq Sharqqa, Kavkazga, Volga boʻyi rayonlariga badargʻa qilindi. (R.Shamsutdinov. «Qatagʻon qurbonlari», II kitob).

Ukrainaning Xerson va Nikolaev oblastlariga badarg'a kilinganlar orasida tumanimizning birorta qishlog'i chetda qolmagan. 1929-30 yillari Nursux qishloq Sovetining Mosh mahallasidan 12 ta, Qo'rg'oncha mahallasidan 5 ta, Tagobdan 10 ta, Bekoboddan 3 ta oila «quloq» tamg'asi bilan Ukrainaga surgun qilindi, ularning aksariyati o'sha erda vafot etdi. Bunday misollarni O'qchi, Rajabgardi, Qudash, Qo'shqunoq, Dehqonobod va boshqa qishloqlardan ham keltirish mumkin.

Stalin shaxsiga sig'inish yillari O'zbekiston xalqi boshiga og'ir kulfatlar soldi. SSSR ichki ishlar xalq komissari «temir narkom» nomini olgan Nikolay Ejovning 1937 yil 30 iyuldagi «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish operatsiyasi to'g'risida»gi 00447-sonli mutlaqo maxfiy operativ buyrug'iga muvofiq 1937 yili 10 avgustdan 1938 yil 1 yanvarigacha bo'lgan vaqtda O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi otuvga, 7082 kishi 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.

Bu qatag'on qilinganlarning orqasida ularning ahli ayoli, farzandlari, ota-ona, aka-ukalari, qavm-qarindoshlari, yaqinlari, do'stlari qoldiki, ularga ham bu qatag'on zarbasining t siri tekkani tabiiydir. Ular ham har jihatdan ruhiy azobda qolgan. Ularga «quloq»ning, «xalq dushmani»ning o'g'li, qizi, ahli ayoli, akasi, ukasi, qarindoshi, do'sti, gumashtasi, dumi kabi tamg'alar qo'yilgan, har jihatdan kamsitilgan, huquqlari toptalgan ma'naviy xo'rlangan. Shu bois, qatag'on qurbonlari haqida o'ylarkanmiz, ularning orqasida qolganlarning hamqismatini ko'z oldimizga keltirishimiz lozim. Ma'lum ma'noda, ularni ham qatag'on qurbonlari deb qarash to'g'ri bo'lsa kerak. quyida Rustam Shamsutdinovning «Qatag'on qurbonlari» kitobida berilgan 1937-1938 yillari «uchlik» qarori bilan O'zbekiston tumanidan «quloq», «xalq dushmani» va boshqa tamg'alar bilan mahrum etilganlar va otilganlar ro'yxati havola qilinadi.

Otuvga hukm qilinganlar

- 1565-ish. Qo'ldashev Abdulla - 1882 y. Bekobod q.
- 1566-ish. Hakimov Abdurahmon - tug'ilgan yili noma'lum, Sulaymon q.
- 1598-ish. Abduvahobov Abdumo'min - 1901 yil, Tuyul q.
- 1602-ish. Rustamkulov Payg'ambarkul - 1874 yil, Botirboy q.
- 1603-ish. To'xtaboev Mulloqo'chqor - 1880 yil, Xudoyorxon q
- 1606-ish. Xonkeldiev Mamashokir - 1874 yil, O'qchi q..
- 1609-ish. Ahmadgareev Mustafo - 1878 yil, Sho'rsuv kon.
- 1610-ish. Grudistov Grigoriy - 1910 yil, Sho'rsuv kon.
- 1613-ish. G'ofurov Mamajonboy - 1874 yil, Pastqo'riq q
- 1618-ish. 1615-ish. Fozilov Mullokamol - 1887 yil, Okmachit q.
- 1616-ish. Mamasharipov Mamarajab - 1880 yil, Xudoyorxon Q.
- 1618-ish. Boborahimov Qurbonali - 1881 yil, Rajabgardi k
- 1621-ish. Grudistov Nikolay - 1873 yil, Sho'rsuv kon.
- 1720-ish. Karimov Ismoiljon - 1900 yil, Shuxay q

O'n yilga xukm qilinganlar

- 1600-ish. Rasulov Eshonqul - 1897 yil, Qashqaqum q
- 1622-ish. Anoshkin Mixail - 1889 yil, Sho'rsuv kon.
- 1644-ish. Tursunqulov Mirzakarim - 1902 yil, Islom q

1646-ish. Madibrohimov Mamajon - 1881 yil, Oqmachit q.
1652-ish. Qo'shmatov Usmonali 1902 yil, Chekko'prik k
1648-ish.

1. Xolmatov A'zam 1893 y, Jonqaytma q
2. Xalipov Akmal - 1890 yil, Pastqo'riq q.
3. Xo'jaev Azamat - 1905 yil, Yaypan q.
4. Boboxonov Jo'raboy - 1869 yil, Nursux q.
5. Tusmatov Mirzaboy - 1899 yil, Pastqo'riq q.
6. O'sarov O'rinboy - 1903 yil, Yaypan q.
7. Karimov To'ychi - 1903 yil, Dashtxasan q.
8. Parpiev Abdulla - 1908 yil, Yaypan k
9. Sattorov Dadajon - 1895 yil, Xudoyorxon q.

1937 yil 2 oktyabr qarori bilan 10 yilga hukm qilinganlar

- 1715-ish. Asqarov Hasanboy - 1899 y, Shoimbek q.
1716-ish. Ahmadqulov Mamasoli - 1895 y, Shoimbek k.
1717-ish. Axmadqulov Azamboy - 1899 y, Shoimbek q.
1718-ish. O'rinboev Bektoshboy - 1880 y, Shoimbek q.
1719-ish. Yusupov Mamatboy - 1905 y, Shoimbek k
1720-ish. Yulchiboev Yuldash - 1892 y, Karmak k.
1721-ish. Jo'raev G'ofur - 1917 y, Sho'xay q.
1722-ish. Mamdaliev Abdurahmon 1892 y, Sho'xay q.
1723-ish. Soliev Abdusalom - 1896 y, Sho'xay q.
1724-ish. Xolmatov Mirzaahmad - 1877 y, Sho'xay q.
1725-ish. Qoraboev Muydin - 1914 y, Sho'xay q.
1726-ish. G'oziev Asqarali - 1892 y, Sho'xay k.

1937 yil 1-30 noyabr kunlari o'n yilga xukm qilinganlar

- 13826-ish. Marasulov Xolmat - 1903 yil, Qashqar q.
13827-ish. Begmurodov Boymurod - 18882 y, Ingichka q.
13829-ish. Sultonov Tursunboy - 1902 y, Qo'rg'oncha k
13831-ish. Mamatqulov Yoqubjon - 1906 y, Karmak k
13832-ish. Sotvoldiev A'zam - 1877 y, Qashqar q.
13846-ish. Raximov Abdulla - 1901 yil, Hayit q.
13847-ish. Ahmedov Yunus - 1918 yil, Pastko'riq q
13848-ish. Xo'jamatov Ermat - 1896 yil, Qorayozibobo k

- 13849-ish. Abdurazzoqov Mahmudmaqsim 1901 yil. O'qchi k
13850-ish. Musaev Hamroqul - 1869 yil, Qudash q.
13851-ish Belkozov Nikolay - 1915 yil, Sho'rsuv kon.
Hamroqulov O'rmon 1905 yil, Qudash q.
13853-ish Dmitriev Nikolay - 1910 yil, Sho'rsuv kon.
13854-ish Solalilov Ivan - 1905 yil, Sho'rsuv kon.

13856-ish Motorin Ilya - 1889 yil, Sho'rsuv kon.
 13857-ish Sidyakin Stepan - 1916 yil, Sho'rsuv kon.
 13858-ish Masobirov Qurbonboy - 1908 yil, G'irriq,
 13859-ish Mamatqulov Yoqub - 1902 yil, Qo'rg'oncha q.
 13861-Ish Eshmatov Qo'chqor - 1874 yil, Nursux q.
 13862-ish Madaev Sattorqori - 1903 yil, Dungsaroy q
 13863-ish Muhiddinov Inomxon - 1880 yil, Qudash q.
 13864-ish Dehqonboev Po'latboy - 1888 yil, Yaypan q.
 13865-ish Nuraliev Mahkamboy — 1889 yil, Jamanjar q.
 13866-ish Abdunazarov Ermatpolvon - 1888 yil, Qushchi q
 13867-ish Alimov Tursunboy-1905yil, O'qchiq.
 13868-ish Mamatqulov Mirhamdam - 1910 yil, Sho'rqishloq.
 13869-ish Qurbonov Haydarmaqsum - 1909 yil, Yakkatut k.
 13870-ish Abdurahmonov Boboqori - 1899 yil, Boltako'l q.
 13872-ish Ahmedov Toshpo'lat - 1899 yil, Rajabgardi q.
 13873-ish Abdurahmonov Mirzaraxim - 1901 yil, O'qchi q. 1
 13874-ish Hamidov Xo'ja - 1904 yil, Kattayangi q.
 13875-ish Ahmedov To'raqul - 1902 yil, Kattayangi q.
 13876-ish Sultonov Karimberdi - 1900 yil, Nursux q.
 13878-ish To'ychiev Dehqonboy - 1875 yil, Kattayangi q.
 13879-ish Rahmonqulov Xo'jaqul - 1897 yil, Dexqonobod q.
 13880-ish
 1. Sarimsoqov Jamoliddin - 1901 yil, Dashtcho'lpon q.
 2. Azimov Husanboy - 1900 yil, Dashtcho'lpon q.
 3. Yuldashev Boltaboy - 1904 yil, Qudash q.
 4. Saydaliev Mamadali - 1906 yil, Yaypan q.
 5. Boymatov Yusupjon - 1905 yil, Chirkay q.
 6. Nazarov Obidjon - 1910 yil, Nursux q.
 13896-ish. Mavlonov Rahmon - 1877 y, Bekobod q.
 13897-ish. Nurmatov Mumin - 1872 y, Bekobod q.
 13898-ish. Ashurmatov Abdurahmon - 1877 y, Bekobod q.
 13899-ish. Mamadiev Zokir - 1882 y, Bekobod q.
 13900-ish. Qoplonov Mullaxaydar - 1890 y, Chek - chuvaldak q
 13901-ish. Mamatqulov Abdumalik 1879 y. Bekobod q
 13904-ish. Xo'jaberdiev Azimboy - 1885 y, Kalamush q
 13905-ish. Begmurodov Turdali 1894 y. Chek chuvaldaq q
 13906-ish. Umurzoqov Abdurazzoq 1897 y, Sho'xay q.
 13907-ish. Shalimov Mamajon - 1877 y, Bekobod k
 13908-ish. Mavlonov Husan - 1887 y, Bekobod q
 Sultonov Qosim - 1903 y, Kaldushan q.
 13909-ish. Asqarov Qambarali - 1874 y, Kaldushan q
 13910-ish. Toshtemirov Ummatqul - 1874 y, Shuxay q.

**1938 yil 17 fevraldagi «uchlik» yig'inining 87-sonli bayonotnomasi bilan
 otuvga hukm qilinganlar:**

Yoʻldashev Ahmad 1887 yil. Ovchi q
Mamayusupov Mamaroziq - 1877 yil, Qurbonmangan q.
Kabirov Qodirali - 1900 yil, Magrurrajab q.
Mamatkulov Toshpoʻlat - 1900 yil, Nursux q.
Abdullaev Abdusamat - 1902 yil, Yaypan q.
Sodikov Erkaboy - 1871 yil, Nursux k.
Joʻraboev Muhiddin - 1990 yil, Chirkay q.
Soibnazarov Xudonazar - 1889 yil, Qushchi q.
Abduraxmonov Abdulla mahsum - 1883 yil, Qushqoʻnoq q.
Sodiqov Sulton - 1895 yil, Yaypan q.

Urush tugagach, oradan koʻp oʻtmay, OʻzSSR boʻylab yana bir yalpi qirgʻin toʻlqini elib oʻtdi. XX asrning 40-yillari oxiri va 50- yillar boshidagi qatagʻonlar, asosan, madaniyat va fan arboblari qarshi qaratildi. 80-yillarda esa mudhish «paxta ishi» koʻtarildi. Yurtboshimiz sharofati bilan mustaqillikka erishmaganimizda oʻzlarini xalqning xaloskori deb atagan shoʻrolar xukumati el-yurtimiz boshiga son-sanoqsiz qirgʻinlardan yana qanchasini solgan boʻlar edi.

⁵⁰ Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12-jild, 173-174-betlar

⁵⁰ OʻzME. 12-jild, 173-bet.

TURKISTONDA MILLIY OZODLIK KURASHI

Kimki kurashsa gar erk va xayot deb,
Oʻshanga loyiqdir erk ham, hayot ham.
Gyote.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Ahmad Al-Fargʻoniy tavalludini nishonlash bilan bogʻliq tadbir yuzasidan Quva va Fargʻona shahriga tashrif buyurib, istiqlool bayrogʻini baland koʻtargan, milliy ozodlik kurashiga, qurolli harakatga bosh boʻlgan Madaminbek va Shermuhammadbeklarni eslab oʻtgan edi. Chunki yangi tarixni yaratishda istiqlool uchun kurashgan ulugʻ zotlarning taqdirini bilish, ularning asl qiyofasini tiklab, hozirgi va kelajak avlodga etkazish juda muhim. Tariximizning kemtik qirralaridan boʻlgan 1918-1934 yillar Vatan va millat ozodligi, erk uchun olib borilgan mardonavor kurash davridir.

Biz «bosmachilar» toʻgʻrisida koʻpgina kitoblar, maqolalar oʻqib, badiiy filmlar koʻrganmiz. Lekin ular tarixni xolis-sanlilloh yoritib bermagan, milliy-ozodlik harakati qahramonlariga har doim oʻgay koʻz bilan qaralgan. 2008 yilda chop etilgan qoʻqonlik yozuvchi Mansurxoʻja Xoʻjaevning «Shermuhammadbek qoʻrboshi» nomli tarixiy, hujjatli, badiiy-publitsistik asari yaqin-yaqingacha bosmachi, qoʻrboshi deb nomi qoralab kelinganlar aslida milliy-ozodlik harakatining chin fidoyisi ekanliklarini atroflicha va mukammal dalillar bilan yoritib berdi. “Yozuvchining roziligini olib, ushbu kitobdan men ham foydalandim”-deydi Salimjon Hamroqulov oʻzining “Yaypan: Kecha va bugun”

kitobida «Rusiyaning Sharqqa hamlasi Oltin oʻrda parchalanib, rus knyazliklari yagona markazlashgan davlatga birlashgan XVI asrda boshlanadi. 1505 yilda Moskva knyazligi Oq oʻrdaga hujum boshladi. Xonlik bu hujumni qaytarib, Moskva Kremligacha quvib bordi.

Keyinchalik ruslarning tolei baland kelib, asta-sekin Qozon, Krim, Edil boʻylari, Oʻrol, Sibiriya, Uzoq Sharq va Qozoq dashtlarini istilo etib, Oʻrta Osiyo xonliklariga jiddiy xavf sola boshladilar. Qoʻqon xonligini bosib olish esa 1853 yildan boshlandi. Lekin 1865 yilgacha jang yoʻli bilan bunga erisha olmadi. Chunki Alimqul askarboshi vatan mudofaasini tashkil eta oldi. Dushmanga nisbatan murosasizligi bilan mashhur boʻldi. Rus generali Qoʻqon xonligining dovyurak, mashhur askarboshisi Alimqulni engi olmagandan soʻng, uning udaychilaridan birini sotib olib, jangda orqasidan oʻq ottirib oʻldiradi (Toʻlagan Qosimbekovning «Singan qilich» tarixiy romani). Shundan soʻng 1876 yili Qoʻqon xonligi bosib olinadi va xonlik tugatiladi».

Yana M.Xoʻjaevning kitobiga qaytib, quyidagilarni oʻqiymiz: «...Qoʻqon xonligi osonlikcha taslim boʻlgan emas, oʻz qudrati, salohiyati darajasida shiddatli janglar qilgan. Taassufki, kuchlar, harbiy salohiyat, qurollanish texnikasi jihatidan tomonlar teng emas edi. Shunday boʻlsa-da, ozodlik kurashining qahramonlari etishib chiqib, zamonaviy oʻt otar qurollariga ega boʻlgan dushmanga qarshi oʻq-yoy, qilich, pilta miltiq bilan jang qilib, qahramonlik namunalarini koʻrsatdi».

Rossiyaning moʻljali Oʻrta Osiyo xonliklarini boʻysundirgach, ularni yarim mustamlaka nufuzida ushlab turish edi.

Biroq Qoʻqon xonligi fuqarolari tomonidan koʻrsatilgan qattiq qarshilik bois uni yarim mustamlaka holida tutib turishi puch hayol ekanligi ayon boʻldi. Xonlikni tugatib, turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qoʻshib olindi. Milliy ozodlik harakatini endilikda «isyonchilik», «qaroqchilik» tarzida baholab, uni bostirish yoʻllari ishlab chiqildi. Vodiyga kazaklar, mujiklar koʻchirib kelinib, unumdor erlarga joylashtirildi. Front orqasidagi ishlarni kuchaytirish maqsadida isyon qilishga moyilligi boʻlgan yoshlar 1916 yili mardikorchilikka olindi. Bu Fargʻonada milliy ozodlik harakatining yanada rivojlanishiga sabab boʻldi. «Dukchi eshon» deb nom olgan qoʻzgʻolon 1916 yilga kelib ommaviy xalq qoʻzgʻolonlariga ulanib ketdi. Qoʻzgʻolonlardan tashvishga tushgan bolshavoylar Qoʻqonda, umuman vodiyda qirgʻin oʻtkaza boshladi. 1918 yilda tinch aholidan 35000 kishi qirib tashlandi.

19 fevralda Qoʻqon zambaraklar, yonuvchi snaryadlardan foydalanib oʻqqa tutildi va

eski shahar tamoman vayron qilindi. 20 fevral kuni piyoda qoʻshinlar va dashnoq jangarilari kirib kelib, xonadonlarni taladi, ayollarni zoʻrladi, erkaklar oʻldirildi. Dashnoqlar odamlarni qilich bilan chopib, pichoq bilan boʻgʻizlab tashladi. Bolshavoylarning adolatsizliklariga chiday olmagan, janglarda toblangan, jasur Bachkirlik Ergashbek tevaragida Yaypandan (Qoryozbobo) Islom Polvon, Beshariqdan Hamdam Hoji, Oltiariqdan Toʻychi Polvon va boshqa tashkilotchi sardorlar yigʻila boshladi. Ergash eshon boʻlganligi uchun islom shariati nomidan ish yuritdi, 1918 yil kuzida uning atrofida 24000 qoʻshin yigʻildi. Ergash qoʻrboshi Oktyabr toʻntarishi va Turkiston Muxtoriyati halokatidan soʻng Fargʻona

vodiysidagina emas, balki, butun Turkistonda ozodlik bayrog'ini birinchi ko'targan kurashchi edi.

Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o'g'li 1892 yilda Marg'ilonda qashshoqlashib qolgan bekdodalar xonadonida tug'ilgan. 1918 yil boshlarida Marg'ilon militsiyasi boshliqligiga tayinlanadi. Muxtoriyat tugatilib, Qo'qon qonga botirilgach, Madaminbek o'z qo'l ostidagi 300 yigit bilan milliy ozodlik harakati yo'liga o'tadi. Madaminbekning dovrug'ini yoygan katta, shiddatli janglar asosan 1919 yilda bo'lib o'tdi. Yil boshida 20 ming kishilik jangchisi bo'lgan qo'mondon M.V.Safronovga xujum qiladi va uni asirga oladi. Shunda bolshavoylar o'z qarshisida betartib, tarqoq to'dalar emas, balki, yaxshi uyushgan, salohiyatli sarkarda qo'mondonlik qilayotgan muntazam ozodlik armiyasi turganini his etdilar. Madaminbek 1920 yil 14-mayda o'ldirildi. Kim tomonidan o'ldirilganligi hanuzgacha mavxum qolmoqda.

O'zbekistonda sovet davrida Shermuhammadbek siymosi qora rangda ifodalangan bo'lsa, Turkiyada qordek oppoq rangda ifodalangan. U milliy ozodlik harakatining eng sobitqadam vakili bo'lishiga qaramay, xalqimiz orasida «Ko'rshermat» nomi bilan mashhur bo'lib, uning siymosiga nisbatan salbiy munosabat shakllangan.

Milliy ozodlik harakatining namoyandalari harakatlarni maqsadli yo'nalishda olib borishi uchun qurultoylar o'tkazib turishdi. Shulardan biri Bachqir qishlog'ida 1918 yil 29 martda bo'lib o'tadi. Navbatdagisi 1919 yil 22 noyabrda Gorbuvada bo'lib, Shermuhammadbek bu qurultoyi «Milliy kurash harbiy majlisi» deb atadiya .

1920 yil 2 mayda G'orbuvada navbatdagi katta qurultoy chaqirilib, Turkiston Muvaqqat hukumati tuzilganligi e'lon qilindi. Madaminbek hukumati barham topib, Shermuhammad ozodlik hukumatini boshqardi.

1922 yilning 15-20 aprellarida G'orbuvada navbatdagi qurultoy bo'lib, asosan Sho'ro qo'mondonligining ultimatumlariga rad javobini berish, kurashni davom ettirish haqida qaror qabul qilindi.

1923 yilning 15-17 fevral kunlari G'orbuvada Farg'ona milliy-ozodlik harakatining navbatdagi qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda Shermuhammadbek Afg'onistonga ketgandan keyingi vaziyat muhokama qilinib, kurashni davom ettirishga qaror qilindi. Vodiya eng uzoq qurolli kurash olib borish Jonibek Qoziga nasib etdi. Qozi 1934 yilgacha O'zgan, Qorasho'ra, Oloy atroflarida jangni davom ettirib, oxiri Qashqarga ketishga majbur bo'ldi.

Shermuhammadbek 1945 yilga qadar Afg'onistonda, Hindistonda, 1951-1959 yillarda Pokistonda, 1959 yildan umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida yashab, 1970 yil 10 martida 77 yoshida olamdan o'tdi».

Ashurali Zohiriy- yurt va millat fidoyisi



Tarixining qat-qatida buyuk sirlar yashiringan ko`hna Qo`qon ne-ne azamat, millat faxri bo`la oladigan o`g`lonlariga ega. Bugungi kun yoshlari ularni bilishi, qadlashi, ular qoldirgan bebaho merosdan bahramand bo`lishi, ularning ibratli hayotidan o`rnak olishlari shart va zarurdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan ularning xotirasiga ehtirom ko`rsatish bo`yicha bir qator sa`yi xarakatlar amalga oshmoqda. Darhaqiqat, Shavkat Mirziyoyev: “Hamma o`z tarixini ulug`laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo`q”, deganida nechog`lik haqiqat mujassamdir.

Butun bir millat faxrlanadigan, umrini ilm-fanga bag`ishlagan, umrboqiy va kelajak avlodlarga abadiy xizmat qiladigan asarlar muallifi bo`lgan fidoyi ma`rifatparvarlarimizdan biri- bizning vatandoshimiz Ashurali Zohiriydir.

Ashurali Zohiriy 1885 yilda Qo`qon shaxri yaqinidagi Oyimqishloqda tug`ildi. Otasi Muhammad Zohir dehqonchilik bilan ro`zg`or tebratar edi. A. Zohiriy dastlabki ta`limni o`z qishlog`ida eski maktabda olgach, Qo`qondagi Muhammad Alixon madrasasida tahsilni davom ettiradi. Tarix, adabiyot fanlarini chuqur o`rganib, arab, fors, rus, ozarbayjon, turk, tatar tillarini puxta egallaydi. X. Xakimzoda, Ibrohim Davron, Muhammadjon Xoliqiy, Muxtorjon Muhammadiyev, Po`latjon domla Qayumovlar bilan tanishib, keyinroq ularning doimiy hamfikrlari sifatida faoliyat ko`rsatadi.

Avval rus-tuzem maktabida dars beradi, bir guruh ma`rifatchilar bilan “Dorulmuallimin” maktabini tashkil etishda faol ishtirok etadi, so`ngra pedagogika texnikumida, savodsizlikni tugatish kurslarida, shahar maktablarida samarali mehnat qiladi. A. Zohiriy izlanuvchan, tashabbuskor pedagog edi. U inqilobdan oldingi yillardayoq ona tilida darslik va qo`llanmalar yaratishga kirishdi. 1912 yilda S. Okaev bilan hamkorlikda maktab o`quvchilari uchun “Turkiy xrestomatiya yohud terma kitob” darsligini yaratdi. A. Zohiriy “Sadoyi Farg`ona” ro`znomasining 1914 yil 13 aprel sonida bosilgan “Ona tili” sarlavhali maqolasida “Qachonki o`z tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durus bilmaymiz”, deb yozadi. 1910 yilda “Imlo” darsligini taqim etadi. 1917-26 yillarda Qo`qondagi ta`lim-tarbiya texnikumida (hozirgi pedagogika kolleji) muallimlik qildi. Zohiriyning Ahmad Yassaviy, A. Navoiy, Lutfiy, Bobur, Muqimiy kabi adiblarimiz haqidagi darslarini o`quvchilar diqqat bilan tinglashrdi. 1926 yillarda atoqli adib Cho`lpon bilan hamkorlikda “Adabiyot parchalari” darslik majmuasini yaratdi. 1928-1928 yillarda adibning “Ruscha-o`zbekcha mukammal lug`at”i chiqarildi. A. Zohiriy istedodining yana bir qirrasini uning tashkilotchi jurnalist ekanligida yaqqol ko`rinadi. Uning jonbozligi tufayli Qo`qonda mahalliy tildagi birinchi gazeta “Sadoyi Farg`ona”

chiqa boshladi.U qaysi janr va mavzuda yozmasin, xalq maanfatini ko`zlab qalam tebratar edi va shu bilan o`zbek matbuoti taraqqiyotiga katta hissa qo`shdi.

A.Zohiriyning xizmatlari uning hayotligida munosib taqdirlandi.1923 yilda Farg`ona Oblrevkomi va muzofot kasaba ittifoqi qaroriga ko`ra “ Mehnat qahramoni” unvoniga sazavor bo`ldi.1928-30 yillarda Farg`ona viloyatidan 42 nafar ziyolilar “ aksilinqilobiy guruh”lar deb sho`rolarga qarshi jadidchilikda ayblanib, qatag`on qilinib, qamoqqa olindilar.A.Zohiriy Qo`qon pedagogika ta`lim-tarbiya texnikumini 1920-24 yillarda birinchi bo`lib tamomlagan, tarixda “Afsonaviy 13 qaldirg`ochlar” deb nom olgan 13 nafar bitiruvchilarninh ustozlari edi.1991 yil aprel oyida O`zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimovning imzosi bilan Ashurali Zohiriyning nomlari abadiylashtirilib, Qo`qon pedagogika bilim yurtiga Ashurali Zohiriy nomi berildi.Bilim yurtining 70 yillik yubilyi arafasida bilim yurti hovlisiga Ashuralin Zohiriy domlaning byusti o`rnatilgan

A.Zohirining 3ta o`g`il va 1 qiz farzandi bo`lgan, qizi o`smir chog`ida vafot etgan, katta o`g`li 2-jahon urushidan qaytmagan.Ikkinchi o`g`li- Davron aka Andijon viloyatida yashab, aeroportda faoliyat ko`rsatgan.Kichik o`g`li Najmiddin aka Oyimqishloqda yashab, tibbiyot xodimi bo`lib ishlagan.O`g`illari doimiy ravishda, sho`rolar tahdidi va qo`rquv ostida yashab, tekshiruvlardan bezib,otasiga tegishli barcha ma`lumot va yozishmalarni yoqib yubormagan.

Yunusjon Jo`rayevning otasi A.Zohiriy bilan bir davrda yashagan.Oddiy dehqonchilik bilan shug`ullangan bo`lsa ham, ilm-fanni qadrlaydigan, kitobsevar inson bo`lgan. Zohiriy haqida har doim farzandlariga gapirib bergan. Shularning samarasi o`laroq, Yunusjon Jo`rayev 80 yoshida Oyimqishloqning butun tarixini o`z ichiga olgan “ Mahalla – mehr-oqibat qo`rg`oni” nomli kitob yaratgan. Mazkur kitobda Oyimqishloq tarixi, unda yashab o`tgan, ibratli hayot egasiga aylangan tarixiy shaxslar, shu jumladan, A.Zohiriy haqida qimmatbaho ma`lumotlar qayd etilgan.

1. A.Zohiriy taniqli jurnalist, o`tkir publisist, yirik filolog olim, pedagog va hattot sifatida faoliyat ko`rsatgan.
2. Tarix, adabiyot, bir necha tillardagi asarlarini puxta o`rgangan.
3. Yunusjon Jo`rayevning aytishicha, 12 ta tilni bilgan.
4. Rus-tuzem maktabida, hozirgi Qo`qon pedkollejida, Neft texnikumida, savodsizlikni tuzatish kurslarida muallimlik qilgan.
5. “ Turkiston viloyatining gazetasi”, “ Sadoyi Turkiston” gazetalari, “Oyna”, “ Al Isloh” jurnallarida dolzarb maqolalari bosilgan.Yuzlab maqolalari bilan Turkiston ichkarisi va tashqarisida mashhur bo`lgan.
6. Olimning “ Ona tili” nomli maqolasi juda mashhur bo`lib, boshqa gazetalar ham ko`chirib bosishgan.
7. “ El bayrogi”, “ Farg`ona” nomli gazetalarda ishlagan.
8. A.Zohiriy “ Yurt ” nomli jurnalni tashkil qilgan.Zamondoshlarining aytishicha, bu jurnal eng ko`rkam nashrlardan biri bo`lgan.


9. Ilmiy-pedagogik faoliyati sermahsul bo'lib, quyidagilarni sanab o'tish joizdir:
- a) rus-tuzem maktablari uchun S.Okayev bilan birga “ Turkiy xrestomatiya yoxud terma kitob” (1912);
 - b) yangi usul maktablari, 4-sinf o'quvchilari uchun “Imlo” kitobi (bu imlo haqidagi ilk kitob)
 - c) atoqli shoir Cho'lpon bilan hamkorlikda yuqori sinf va bilim yurti talabalari uchun “ Adabiyot parchalari” darsligi;
 - d) ikki jildli “ O'zbekcha-ruscha lug'at” (Bu kitob ham lug'atshunoslikka oid ilk ilmiy kitob)larni yaratgan.

A.Zohiriyning hurfikrliligi, o'tkir publist sifatida yozgan maqolalari Sho'ro hukumati uchun xafv tug'dirgan. Bundan tashqari, 1928-1920 yillarda Qo'qon erksevar ijodkorlaridan tashkil topgan “ Botir gapchilar” tashkilotining goyaviy rahbari va tashkilotchisi bo'lgan.Ular mustamlakachilik siyosatining zararli oqibatlari haqida qo'rqmay, jasorat bilan so'zlaganlar. Shuning uchun ham A.Zohiriy 1929 yilning oxirlarida “ millatchi ” sifatida aylanib qamoqqa olingan.Boshqa nohaq qamalanganlar qatori Moskva-Volga kanali qurilishida ishlagan.1935 yil kanal qurilishi yakunlanishi munosabati bilan amnistiyaga ko'ra ozod qilingan.1937 yil qayta qamoqqa olinib, Toshkentda qatl qilingan.Qabri qaerdaligi noma'lum.

Ashurali Zohiriy qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zi uchun berilgan umrni g'oyat mazmunli o'tkazgan, foydali ishlarga bag'ishlagan.Uning sa'yi harakatlari mevali daraxt kabi bugungi kunda ham ziyoli insonlarni bahramand etib kelmoqda.Biz o'z vatandoshimizni faxr-iftixor bilan yodga olamiz, qadrlaymiz, keyingi avlodlarga etkazamiz.

Ashurali Zohiriy haqida har qancha to'xtalsak, faxrlansak oz. Ashurali Zohiriy haqida ma'lumotlaringizni boyitishingizda, biz sizlarga kutubxonamiz fondida bor bo'lgan “ Ashurali Zohiriy-yurt va millat fidoyisi” nomli kitobni olib o'qishlaringizni tavsiya qilib qlamiz.

V. 173 nafar qatag'on qurbonlari nomlari oqlandi



Oliy sud 4 ta jinoyat ishi bo'yicha surgun qilingan, otilgan va mol-mulki musodara qilingan 173 nafar qatag'on qurbonlari nomini oqladi. Ularning aksariyati Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida yashagan. Reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan 173 nafar qatag'on qurbonlari jami 4 ta jinoyat ishi bo'yicha oqlandi. Bu haqda 19 dekabr kuni Oliy sud o'tkazilgan jarayonida qatnashgan «Gazeta.uz» muxbiri xabar bermoqda.

Oliy sud raisi o'rinbosari Ikrom Muslimovning ta'kidlashicha, prezidentning 2020 yil 8 oktyabrdagi «Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika ishchi guruhi va qatag'on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlangan. Shunga asosan, qatag'on qurbonlarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko'lamini kengaytirish uchun mas'ullarga vazirlik va idoralarning idoraviy arxivlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Ta'kidlanishicha, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko'ra reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag'on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan takliflar kiritish belgilangan. Shu munosabat bilan qatag'on qurbonlarining reabilitatsiyasi bo'yicha masala o'rganib chiqilgan hamda Respublika ishchi guruhiga takliflar ko'rib chiqish uchun yuborilgan.

Ma'lum qilinishicha, Oliy sudga 2022 yilning 12 dekabr kuni 173 nafar shaxsga nisbatan 4 ta jinoyat ishi kelib tushib, ishchi guruh tomonidan o'rganib chiqilgan.

Mazkur jinoyat ishlarida sud majlisi bayonnomasi yoki sud hujjatlari (hukm yoki boshqacha qaror) mavjud emasligi, ishlarda faqatgina OGPUning uchlik majlisi bayonnomasidan ko'chirma borligi aniqlangan. Jumladan:

1. Markaziy Osiyodagi Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (BDSB) Uchlik yig'inining 1931 yil 12 oktyabrdagi maxsus yig'ilish qaroriga ko'ra:

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Xasan Davlyatov, Minniyaz Xodjimu (Minni yax Xodja Muratov), Babakul Musaev, Begimqul Abdurasulev, Xalmumin Tursunov, Valixan Xodjaev, Saat Tashkulov, Akbuta Tashkulov, Karabay Tashkulov, Djuma Karakulov, Saitkul Xalbaev, Xusan Duskabilov, Tura Annarov, Xudaykul Xalikulov, Abdulla Utaganov — O'zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan 10 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Ataxan Yuldashev, Musa Xodja Keldiev, Payan Ilmuratov, Parda Tursunov, Tashmirza Minturaev, Nurmat Tellyaev, Suvan Pirnazarov, Chari Pirnazarov, Xudoyar Kabilov, Xudoyar Turdiev, Safar Karaev, Ruzikul Safarkulov, Kabil Ishmatov, Gulbay Karimov, Yusup Djumaev, Shaymardan Shaymuratov, Shirin Ishniyazov, Kuzi Murat Abdukarimov, Irdan Ishniyazov, Tashtemir Karimov, Uzak Xudaykulov, Abir Bekmuratov, Muxamadi Ishniyazov, Mamat Acheldiev, Kurban Yakubov, Djuma Xalmuradov, Karabay Daniyarov, Djuma Abdurasulev, Tadjii Milikulov, Beknazar Mamarodjapov,

Sapar Xalmuratov, Avgan Muradov, Tura Musulmankulov, Karshi Raximov, Xamra Issamuratov, Abdunazar Xodjinazarov, Djurakul Suleymanov, Sattar Raimkulov, Kurban Minturaev, Gendja Umirzakov, Artik Alimardonov, Narmurat Mustafakulov, Atamurat Alimuratov, Djuma Kabilov, Acheldi Rasulkulov, Karim Djumaev, Raxman Berdiev, Xamra Safarov, Parda Turdiev, Narmurat Milikulov, Ismail Xudaynazarov, Raxmatulla Xudaykulov, Chari Yusupov, Abray Mamarodjapov, Yusup Pardaev, Dabil Muminov, Shayman Illarov, Mulla Tair Abdurasulev, Allamurat Muminov, Yusup Perimkulov, Abduvaxid Utaganov, Ulug Shaygulov, Mirzakul Nurov, Islam Ibragimov, Xamit (Xamid) Ishkabulov, Begimkul Abraev, Tura Shaymuratov, Mamatraim Shukurov, Kasim Kabilov, Kurban Murat Narkabilov, Alim Shaymuratov, Shaymardan Artikov, Xodjakul Yusupov, Irmat Kasimov, Datko Mamayusupov, Babashir Duskabilov, Mamatmumin Djalilov, Narbay (Norbay) Karshiev, Narkurban Xodjiyarov, Atamurat (Atta Murat) Tashmatov, Samat Minturaev, Xamra Tellyaev, Djura Tellyaev, Djalil Sarumsakov, Maxamadi Nazarov, Xamra Xasanov, Xait Nazar Acheldiev, Parda Musulmankulov — O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida yashagan Avaz Xodjakulov, Axmet Maxmudov, Gafar Turdiev, Dana Urunov, Xalik Berdi Davlyatov, Nurmat Raximov, Avaz Berdi Davlyatov, Kendja Xidirov, Djuma Davlyatov, Tagaynazar Maksumov, Tellya Babaev, Abdulla Djalilov — O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyati Denov tumanida yashagan Xamit Babaev, Axmat Babaev, Xalmumin Dusmatov, Ishmurat Abdumuminov, Alikul Xalmuratov, Aman Baymuratov, Kadir Kabilov, Kabil Babamuratov, Abduraim Karshiev — O‘zbekiston SSR JKning 63, 78-moddalari bilan 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Aman Mirzaev, Tangir (Tangri) Narbaev, Taksan (Toksat) Turakulov, Xodjiyar Baymirzaev, Xodjakul Baymirzaev, Narmurat Saitkulov, Ismail Tashbaev, Narmat Saitov, Muxamadi Kurbanov, Nazarmat Xudaynazarov, Abdumumin Shadmanov, Sultan Murat Suvanqulov (Boysun tumani) — O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan 3 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida yashagan Shaim Mallyaev O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan 3 yil muddatga konslagerga surgun qilish jazosi tayinlanib, jazo shartli hisoblanib, hibsdan ozod qilingan.
- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Xodjakul Ishmatov, Mingniyaz Muxamat Muratov, Shadik Ushakov, Tura Mallyaev, Abdulla Ubaydulin, Abdurasul Turakulov, Aman Alimardonov — O‘zbekiston SSR JKning 66, 78-moddalari bilan 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Muxibbulla Nasrullaxanov O‘zbekiston SSR JKning 66, 78-moddalari bilan 10 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Tagay Murat Tashtemirov O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan aybdor deb topilib, mol-mulki musodara qilingan holda 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashagan Alimardan Kabilov O‘zbekiston SSR JKning 78-moddasi bilan aybdor deb topilib, mol-mulki musodara qilingan holda 10 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

2. O‘rta Osiyodagi Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasining 1932 yil 14 oktyabrdagi maxsus yig‘ilish qaroriga ko‘ra:

- Turabek Turabekov, Xazratqul To‘rabekov, Usman To‘rabekov, Abduraxman Boyqo‘ziev, Muradjon (Muratxon) Allaxodjaev, Isxoq Xolmuxamedov, Tashbek Dustbekov — O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi bilan otuvga hukm qilingan.

- Xidir (Xidver) Yuldashev, Turdibek Yusupov — O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi bilan 10 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Mulla Ziya Normatov, Pavi Djuliev, Kuli Amanov, Mansur Tursunov, Redjeb Eganmuradov — O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi bilan 5 yil muddatga konslagerga surgun qilingan.

- Eron fuqarosi Aliev Guseyn O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi bilan SSRI hududidan deportasiya qilingan. Markaziy Osiyodagi Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (BDSB) Muxtor vakili qoshidagi Uchlik kengashining 1929 yil 9 dekabrdagi qaroriga ko‘ra:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanida yashagan Utemurat Palimov (Palimov), Ubaydulla Bekimbetov, Davletnazar Xudainazarov, Abdijamiy Seksenov, Alimbay Djarimbetov, Palvan Aytimov — O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi 2-qismi bilan mol-mulki konfiskasiya qilingan holda otuvga hukm qilingan.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanida yashagan Imbergen Yusupov, Abib (Xabib) Utegenov, Utepbergen Shaniyazov — O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi 2-qismi bilan aybdor deb topilib, ozodlik mahrum qilish jazosi tayinlangan (jinoyat ishida tayinlangan ozodlik mahrum qilish jazosining muddati haqida ma'lumot mavjud emas).

4. Ichki ishlar xalq komissarligi O‘rta-Osiyo okrugi qo‘mondonligi harbiy hay'atining 1941 yil 5 noyabrdagi hukmiga ko‘ra:

- Samarqand shahrida yashagan Qozi Bakaxan (Kazi) Abdullaxodjaev O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi, 66-moddasi 2-qismi, 67-moddasi va 69-moddasi bilan 5 yil muddatga siyosiy huquqlarini yo‘qotgan holda, mol-mulklari konfiskasiya qilinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

- Samarqand shahrida yashagan Mulla Narzibek (Abdujabborov Narzulla) Abdujabborbekov O‘zbekiston SSR JKning 58-moddasi, 66-moddasi 2-qismi, 67-moddasi bilan 5 yil muddatga siyosiy huquqlarini yo‘qotgan holda, mol-mulklari konfiskasiya qilinib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Bosh prokuror o‘rinbosari tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan jinoyat ishlari yuzasidan tegishli tartibda Oliy sudning Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atiga protestlar keltirilgan.

O‘zbek xalqining tarixan shakllangan oily fazilatlari, buyuk ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissalar va ma‘rifatga chorlanganlari bilan tanishishda ko‘hna tarixga qayta-qayta murojaat qilishimiz mumkin. Shubhasiz, ularni sanab tugatish yoki bir jild kitoblarga sig‘dirish ham mushkul.” Gapning qisqasi-yaxshi”, -deydilar. Keling shu eda to‘xtaylikda, qatag‘on qurbonlari haqidagi kitoblar hamda ularning asarlari ro‘yxatini sizlarga quyida tanishtiraylik:

VI Qatag‘on qurbonlari haqidagi ijodiga oid adabiyotlar

1997 yil

1. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi. – B.Qosimov . – T.: Ma‘naviyat 1997. – 232 b.

2006 yil

2. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2 - nashri. 2 - jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari // Tahrir hay‘ati: N.Karimov va boshq.: To‘plovchi: B.Qosimov: Izohlar va lug‘atni O.To‘laboyev tuzgan . – T.: “ Ma‘naviyat”, 2006. – 304 b.

2007 yil

3. Shamsutdinov, Rustam. Qatag‘on qurbonlari. (1937 yil 10 avgust -5 noyabr)/ Mas‘ul muharrir N.Karimov. – T.: “ Sharq”, 2007. – 496 b.

2009 yil

4. Fitrat , Abdurauf. Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar / Abdurauf Fitrat; Ma‘sul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: “ Ma‘naviyat”, 2009. – 336 b.

2018 yil

5. Fitrat, Abdurauf . Abdulfayizxon: Abdurauf Fitrat. – Toshkent: “ Adabiyot uchqunlari ”, 2018. – 80 b.

2021 yil

6. Ashurali Zohiriy-yurt va millat fidoyisi: maqolalar to‘plami; ilmiy-publisistik nashr; krill va lotin yozubvlarida; Farg‘ona “Farg‘ona” nashriyoti, 2021. – 280 b.

2022 yil

7. Boltaboyev Hamidulla. Jadidlar. Abdurauf Fitrat . [Matn] : risola./ H.Boltaboyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 144 b.
8. Xolboyev Salimjon. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov [Matn]: risola / S.Xolboyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 152 b.
9. Fitrat, Abdurauf Abdurahim o'li. She'rlar, nasriy asarlar, dramalar, publisistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar [Matn].Abdurauf Abdurahin o'g'li Fitrat / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: “ Zabarjad Mediya”, 2022. – 400 b.

2023 yil

- 10.Jaloliddin , Nabi. Cho'pon roman-diologiya .Ikkinchi kitob / Nabi Jaloliddin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 512 b.

2024 yil

- 11.Hayit, Boymirza. Turkiston milliy kurashi-“ Bosmachilar ” : / B.Hayit .: “Ijod -Press”nashriyoti, 2024. – 448 b.
12. Cho'lpon, Abdulhamid. Qor qo'ynida lola hikoyalar / A.Cho'lpon – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 96 b.
13. Cho'lpon, Abdulhamid. Qor qo'ynida lola hikoyalar / A.Cho'lpon – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 96 b.

2025 yil

14. Rajabov Qaxramon. Buxoro mang'it amirlari [Matn] / Q.Rajabov.– Toshkent: “Fan - Ochun” nashriyotlari, 2025. – 384 b.
- 15.Rajabov,Qahramon. Shermuhammadbek [Matn] / Q.Rajabov. – Toshkent: “ Ochun” nashriyoti, 2025. – 160 bet.
- 16.Rajabov,Qahramon. Madaminbek [Matn] / Q.Rajabov. – Toshkent: “ Ochun” nashriyoti, 2025. – 112 bet.

2026 yil

- 17.Rajabov Qaxramon. Ibrohimbek qo'rboshi [Matn]/Q.Rajabov– - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2026. – 256 bet.

[PDF Qatg'on qurbonlari\Abdulhamid Cho'lpon.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\355_Qahramon Rajabov Madaminbek 1.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Abdulla Avloniy.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Abdulla Qodiriy.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Abdurauf Fitrat.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Is'hoqxon To'ra.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Mahmudxo'ja Behbudiy.pdf](#)

[PDF Qatg'on qurbonlari\Munavvar Qori Abdurashidxonov.pdf](#)

Исмлар кўрсаткичи

Avloniy - 11
Ashurali - 94

Behbudiy -44
Boltaboyev -83

Rajabov- 17/4

Xolboyev – 72

Hayitov- 12

Fitrat- 71/3

Shamsutdinov -12

Cho'lpon-98

A

B

V

D

J

I

Y

K

L

M

N

O

P

R

S

T

U

X

H

F

G'

Sh

Ch

O'

Q

Yu

E

Mundarija

- I. Kirish _____ 2-3 b.**
- II. Qatag'on qurbonlari
xotirasini abadiylashtirish _____ 3-5 b.**
- III. Qatag'on qurbonlari
haqida nimalarni bilasiz _____ 5-11b.**
- IV. O'zbekiston tuman
qatag'on qurbonlari _____ 11-21b.**
- V. 173 nafar qatag'on
qurbonlari nomi oqlandi _____ 21-25 b.**
- VI. Qatag'on qurbonlari haqidagi
ijodiga oid adabiyotlar _____ 25-26 b.**
- VII. Ismlar ko'rsatkichi _____ 27 b.**
- VIII. Mundarija _____ 28 b.**